



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodik o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITSION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSİYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGİYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TA'LIM MUASSASALARIDA MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBİ VA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (OLİY TA'LIM MUASSASALARI MISOLIDA)	210
Sherkulov Abdunabi Abduvali o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	



MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH

Aliyarov Olim Abdug'aparovich

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)

ORCID: 0009-0004-3784-4335

Annotatsiya. Ushbu maqolada mulkiy soliqlarning mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi ta'sirini baholash masalalari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida resurs va mulkiy soliqlar dinamikasi, yalpi ichki mahsulot (YalM) hamda budjet daromadlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, O'zbekistonda mulkiy soliqlarning YalM va jami soliq tushumlaridagi ulushi, davlat va mahalliy budjetlarda mulkiy soliq tushumlarining o'sish tendensiyalari o'rganiladi.

Shuningdek, mulkiy soliqlardan tushadigan daromadlarning mahalliy budjetlardagi ulushi, soliq to'lovchilar sonining o'zgarish dinamikasi, soliq turlari kesimida qo'llanilayotgan soliq imtiyozlari hamda ularning budjet daromadlariga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda mulkiy soliqqa tortish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, xususan, kadastr agentligi va soliq organlari o'rtasidagi axborot almashinuvini kuchaytirish orqali soliq hisobini takomillashtirish zarurligi asoslab beriladi.

Bundan tashqari, soliq xavfsizligini ta'minlash maqsadida mavjud tahdidlar va tavakkalchiliklarni aniqlash hamda baholashga qaratilgan algoritm taklif etiladi.

Kalit so'zlar: mulkiy soliqlar, soliq ma'muriyatchiligi, soliq xavfsizligi, kadastr bahosi, soliq nazorati, soliq yuki, soliq imtiyozlari, mol-mulk, investitsiya, iqtisodiy xavfsizlik.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the issues related to assessing the impact of property taxes on the formation of local budget revenues. The study examines the dynamics of resource and property taxes, the relationship between gross domestic product (GDP) and budget revenues, the share of property taxes in GDP and total tax revenues in Uzbekistan, as well as trends in property tax revenues within the state and local budgets.

In addition, the share of property tax revenues in local budgets, changes in the number of taxpayers, and tax incentives applied across different tax categories are analyzed. The research develops proposals aimed at improving the efficiency of property taxation, emphasizing the importance of enhancing tax accounting through closer cooperation between cadastral agencies and tax authorities.

Moreover, an algorithm for identifying and assessing threats and risks is proposed to strengthen tax security and ensure the sustainability of local budget revenues.

Key words: property taxes, tax administration, tax security, cadastral valuation, tax control, tax burden, tax incentives, property, investment, economic security.

Аннотация. В статье комплексно анализируются вопросы оценки влияния имущественных налогов на формирование доходов местных бюджетов. В рамках исследования рассматривается динамика ресурсных и имущественных налогов, взаимосвязь валового внутреннего продукта (ВВП) и бюджетных доходов, доля имущественных налогов в ВВП и совокупных налоговых поступлениях Республики Узбекистан, а также тенденции поступлений имущественных налогов в государственный и местные бюджеты.

Кроме того, анализируется доля поступлений от имущественных налогов в доходах местных бюджетов, динамика численности налогоплательщиков, а также налоговые льготы, применяемые по видам налогов, и их влияние на формирование доходной базы. В ходе исследования разработаны предложения, направленные на повышение эффективности налогообложения имущества, в частности обоснована необходимость совершенствования налогового учета на основе расширения взаимодействия между кадастровыми и налоговыми органами.

Также предложен алгоритм выявления и оценки угроз и рисков, направленный на укрепление налоговой безопасности.

Ключевые слова: имущественные налоги, налоговое администрирование, налоговая безопасность, кадастровая оценка, налоговый контроль, налоговая нагрузка, налоговые льготы, имущество, инвестиции, экономическая безопасность.



KIRISH

Real soliqlar hozirgi sharoitda XX asr boshlarigacha davlatning yetakchi daromad manbai bo'lib kelgan fiskal ahamiyatini sezilarli darajada yo'qotgan. Hozirgi vaqtda jahon mamlakatlarining aksariyatida davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi bilvosita soliqlar hisobiga shakllanmoqda. Mulkiy soliqlarning fiskal ahamiyati qisqarib borish tendensiyasi so'nggi 50 yil davomida izchil kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida mulkiy soliqlar mahalliy budjetlarni shakllantirishning muhim va barqaror manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu soliqlardan tushadigan tushumlar mahalliy budjet daromadlarining qariyb to'rttdan bir qismini tashkil etadi. Mol-mulk soliqlari mahalliy budjetlar uchun ishonchli daromad manbai sifatida shakllangan bo'lib, ularning tushumlari barqaror o'sib borayotgani hududlarda qo'shimcha markaziy mablag'larga tayanmasdan puxta moliyaviy strategiyalarni amalga oshirish imkonini bermiqda.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetida mulkiy soliqlar jami soliq tushumlarining taxminan 4 foizini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichning qariyb 60 foizi yuridik shaxslardan olinadigan yer va mol-mulk soliqlariga, qolgan 40 foizi esa jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlariga to'g'ri keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda mulkiy soliqlar mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda barqaror va prognoz qilinadigan fiskal manba sifatida baholanadi. Klassik iqtisodiy yondashuvlarda soliqlar, xususan mulkiy soliqlar hududlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida e'tirof etiladi.

Xalqaro tadqiqotlarda mulkiy soliqlarning fiskal markazsizlashuv sharoitida mahalliy budjetlar barqarorligini oshirishdagi roli asoslab berilgan. Tadqiqotchilar mulkiy soliqlarni iqtisodiy kon'yunkturaga kamroq bog'liq, soliq bazasi esa nisbatan barqaror bo'lgan soliq turi sifatida ta'riflaydi. Bu holat ularning mahalliy infratuzilma va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishdagi ahamiyatini oshiradi.

O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida ham mulkiy soliqlarning mahalliy budjetlar daromadlaridagi ulushi va fiskal ahamiyati keng tahlil qilingan. Tadqiqotlarda mol-mulk va yer soliqlari hududiy budjetlarning asosiy daromad manbalaridan biri ekanini, ularning prognozlashtirish imkoniyati yuqori ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, kadastr baholash tizimini joriy etish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish mulkiy soliqlarning fiskal samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida ko'rsatiladi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar mulkiy soliqlar mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda muhim va barqaror fiskal instrument ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ularning hududiy darajadagi ta'sirini empirik baholash va soliq yukining taqsimlanishini chuqur tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mulkiy soliqlarning mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi ta'sirini baholash maqsadida kompleks iqtisodiy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, Davlat statistika organlari hamda rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar ma'lumotlari tashkil etdi. Tahlil davri 2020–2024-yillarni qamrab oldi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Mulkiy soliqlar (mol-mulk solig'i va yer solig'i) tushumlarining YalM, davlat va mahalliy budjet daromadlari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlanib, ularning fiskal ahamiyati baholandi. Shuningdek, soliq tushumlarining barqarorligini aniqlash maqsadida real o'sish sur'atlari, variatsiya ko'rsatkichlari va statistik tarqalish darajasi hisoblab chiqildi.

Hududlar kesimida mulkiy soliqlarning mahalliy budjetlardagi ulushi tahlil qilinib, soliq yukining yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida taqsimlanish tendensiyalari aniqlashtirildi. Tadqiqot yakunida kadastr baholash tizimini joriy etish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va soliq xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda mulkiy soliqlar ikki asosiy turga bo'linadi, ya'ni mol-mulk solig'i va yer solig'i. 2020-2024-yillarda yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

Mulkiy soliqlar tarkibida O'zbekiston davlat budjetiga eng katta tushum yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i hissasiga to'g'ri kelib, uning ulushi mulkiy soliqlar bo'yicha jami tushumlarning 30 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Fiskal ahamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq turadi bo'lib, so'nggi yillarda uning ulushi mulkiy soliq tushumlarining 30 foizigacha bo'lgan qismini egallamoqda.

So'nggi yillarda, xususan 2020-2024-yillar davomida, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i tushumlarining nisbatan pasayishi va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq tushumlarining



oshib borishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2024-yilda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha to'lovlar 2021-yilga nisbatan 26 foizga kamaygan bo'lsa, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha tushumlar 2024-yilda 2021-yilga nisbatan 42 foizga oshgan. Mazkur tendensiya mulkiy soliqlar tarkibida mol-mulk solig'ining fiskal ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval. 2020-2024-yillarda resurs soliqlari va mulkiy soliqlar dinamikasi¹ (mlrd so'm)

Soliq turlari	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Resurs soliqlari - jami	21 257,0	23 036,4	23 912,8	28 079,5	31 831
Mol-mulk solig'i jami	1 974,3	2 457,3	4 015,4	5 097,7	6 715
shu jumladan:					
yuridik shaxslar	1 240,8	1 576,1	3 040,5	3 609,3	4 754
jismoniy shaxslar	733,4	881,2	974,9	1 488,4	1 961
Yer solig'i jami	2 386,7	4 082,8	5 305,9	6 890,1	7 171
shu jumladan:					
yuridik shaxslar	1 306,8	2 662,5	3 422,0	4 018,1	4 182
jismoniy shaxslar	1 079,9	1 420,3	1 883,9	2 872,0	2 989
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	16 417,1	15 811,9	13 887,4	15 300,3	16 684
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	478,8	684,4	704,1	791,4	1 261

2020-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i bo'yicha 1 760,4 mlrd so'm miqdorida belgilangan prognoz 1 974,3 mlrd so'm miqdorida bajarilib, ijro darajasi 112,1 foizni tashkil etdi.

Shu jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha 774,2 mlrd so'm etib belgilangan prognoz 733,4 mlrd so'm miqdorida bajarilib, ijro darajasi 94,7 foizni tashkil etdi. Natijada, ushbu yo'nalish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari 40,8 mlrd so'mga kam bajarildi².

Jismoniy shaxslarning yer solig'i bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichi 965,8 mlrd so'mni tashkil etib, uning ijrosi 111,8 foiz darajasida ta'minlandi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha tushumlar 2022-yilda 3,0 trln so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 1,5 trln so'mga yoki qariyb 2 barobarga oshdi.

Mazkur soliq tushumlarining sezilarli darajada o'sishiga, soliq stavkasi 2 foizdan 1,5 foizgacha pasaytirilganiga qaramasdan, bir qator institutsional omillar ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, 2022-yil 1-yanvardan boshlab bino va inshootlarga ularning joylashgan hududiga qarab 1 m² uchun mutlaq miqdorlarda belgilangan eng kam qiymatlarni nazarda tutuvchi me'yor joriy etildi. Ushbu minimal qiymatlar mol-mulk solig'ini bozor qiymatiga yaqin kadastr qiymati asosida hisoblashga bosqichma-bosqich o'tish maqsadida kiritildi.

Soliq yukining keskin oshib ketishini oldini olish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, eng kam qiymatlarga 0,5 gacha bo'lgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llash huquqi berildi³.

Mazkur vakolatlar doirasida respublika bo'yicha mavjud 162 ta tumandan 144 tasida eng kam qiymatlarga 0,5-0,9 oralig'ida kamaytiruvchi koeffitsiyentlar tasdiqlandi, 18 ta tumanda esa kamaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llanilmadi.

Amaldagi tartibga muvofiq, soliq to'lovchilarning 13,3 foizi bo'yicha ko'chmas mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan kelib chiqib 1,6 trln so'm miqdorida soliq hisoblandi. Shu bilan birga, soliq to'lovchilarning 86,7 foizi 1 m² uchun belgilangan eng kam qiymat asosida 1,4 trln so'm miqdorida bo'nak to'lovlari bo'yicha malumotnomalarni taqdim etdi.

Bundan tashqari, umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek ushbu obyektlarning ajralmas texnologik qismi hisoblangan inshootlar hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan konservatsiya qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari uchun mol-mulk solig'i stavkasining 0,5 foizdan 0,6 foizga o'zgartirilishi natijasida soliq to'lovchilar tomonidan qo'shimcha 48 mlrd so'm miqdorida to'lovlar amalga oshirildi.

2022-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar 975 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 94 mlrd so'mga yoki 10,6 foizga oshdi⁴.

1 O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2 2020-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi hisoboti.

3 O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/docs/-4674011>

4 2021-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi hisoboti.



Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha tushumlar 2022-yilda 3,4 trln so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 789 mlrd so'mga yoki 30,2 foizga o'sdi. Ushbu o'sishga bir qator normativ-huquqiy va fiskal omillar ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Jumladan:

— obyektlarning ayrim turlari egallagan yer uchastkalariga (umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, konservatsiya qilingan ko'chmas mulk obyektlari) nisbatan yer solig'i stavkalariga qo'llaniladigan pasaytiruvchi koeffitsiyentning 0,3 dan 0,4 gacha oshirilishi hisobiga 51 mlrd so'm;

— qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha 2021-yilda amalda bo'lgan bazaviy soliq stavkalarining 7 foizga indeksatsiya qilinishi hisobiga qo'shimcha 145 mlrd so'm miqdorida tushumlar ta'minlandi⁵.

Shu bilan birga, 2022-yilda yer solig'i bo'yicha soliq stavkalarining aniq miqdorlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va tumanlarning nufuzidan kelib chiqqan holda, bazaviy stavkalar asosida kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llash orqali belgilandi. Mazkur vakolat mahalliy davlat hokimiyati organlariga 2021-yilda taqdim etilgan.

Jumladan, 2022-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha tushumlar 1,9 trln so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 464 mlrd so'mga yoki 32,6 foizga oshdi. Ushbu soliq turi bo'yicha qo'shimcha tushumlarning o'sishi yer solig'i stavkalarining 7 foizga indeksatsiya qilinishi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan jismoniy shaxslarga tegishli yer uchastkalariga nisbatan qo'llanilgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar bilan izohlanadi.

2023-yilda resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha umumiy tushumlar 28,1 trln so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 4,2 trln so'mga yoki 17,4 foizga oshdi⁶.

2023-yilda mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha jami tushumlar 12,0 trln so'mni tashkil etdi. Shundan mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar 5,1 trln so'mni, yer solig'i bo'yicha tushumlar esa 6,9 trln so'mni tashkil qildi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha tushumlar 2023-yilda 3,6 trln so'mni tashkil etib, 2022-yil yakuniga nisbatan 568,8 mlrd so'mga ko'paydi va o'sish sur'ati 118,7 foizni tashkil etdi.

Mazkur tushumlarning o'sishiga quyidagi asosiy omillar ijobiy ta'sir ko'rsatdi:

— ayrim turdagi ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan qo'llaniladigan mol-mulk solig'i bo'yicha pasaytirilgan stavkaning 0,5 foizdan 0,6 foizgacha oshirilishi;

— minimal qiymatdan kelib chiqib soliq solinadigan obyektlar sonining 4 mingdan ortiqqa ko'payishi;

— 221,7 mlrd so'mlik soliq qarzlarning undirilishi.

Shu bilan birga, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan bino va inshootlarning 1 m² uchun belgilangan eng kam qiymatiga nisbatan qo'llaniladigan pasaytiruvchi koeffitsiyentlar (0,5-0,9 oralig'ida) qayta ko'rib chiqildi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha tushumlar 2023-yil yakunida 4,0 trln so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 596,1 mlrd so'mga ko'paydi va o'sish sur'ati 117,4 foizni tashkil etdi. 2023-yilda ushbu soliq turi bo'yicha tushumlarning o'sishiga quyidagi omillar asosiy ta'sir ko'rsatdi:

— 2022-yilda amalda bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkalarining 10 foizga indeksatsiya qilinishi;

— qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yer solig'i stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan pasaytiruvchi koeffitsiyentning 0,3 dan 0,4 gacha oshirilishi.

2023-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'i bo'yicha tushumlar 4,4 trln so'mni (mol-mulk solig'i — 1,5 trln so'm, yer solig'i — 2,9 trln so'm) tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 1,5 trln so'mga ko'paydi va ijro darajasi 152,5 foizni tashkil etdi.

2023-yilda ushbu tushumlarning o'sishiga quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatdi: — qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha mol-mulk solig'i stavkalari va bazaviy yer solig'i stavkalarining 10 foizga indeksatsiya qilinishi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan bazaviy stavkalarga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarning qo'llanilishi;

— tadbirkorlik faoliyati uchun mo'ljallangan noturarjoy ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha mol-mulk solig'i miqdorini 2022-yilga nisbatan oshirishga qo'yilgan cheklovning bekor qilinishi (2022-yilda mazkur cheklov 2021-yilga nisbatan 30 foizdan oshmas edi);

— soliq ma'muriyatchiligi tizimini izchil takomillashtirish, jumladan yangi ma'muriy vositalarni joriy etish, jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish, shuningdek soliq to'lovchilarni xabardor qilish va ularga maslahat berish mexanizmlarining kengaytirilishi.

Shunday qilib, aniqlangan tendensiyalar O'zbekistonda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mulkiy soliqlar bo'yicha soliq yukini qayta taqsimlash jarayonlari shakllanayotganligini ko'rsatadi. Umuman olganda,

5 2022-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi hisoboti.

6 2023-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi hisoboti.



O'zbekistonda mulkiy soliqqa tortish tizimini nisbatan barqaror, ko'chmas mulkni soliqqa tortish ustuvorligi bilan tavsiflash mumkin. Shu bilan birga, mulkiy soliqlar tarkibida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining ustunligi saqlanib qolmoqda (2-jadval).


2-jadval. 2020-2024 yillarda YaIM, budjet daromadlari va mulkiy soliqlar dinamikasi⁷ (mlrd so'm)

Soliq turlari	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Yalpi ichki mahsulot (YaIM)	602 600	734 600	888 300	1 066 569	1 301 800
Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari	156 248	197 678	239 561	278 221	325 656
Davlat budjeti daromadlari	132 938	164 799	202 043	232 607	270 700
Mahalliy budjetlar daromadlari	27 703	29 775	43 033	55 537	58 060
Mol-mulk solig'i jami	1 974,3	2 457,3	4 015,4	5 097,7	6 715
shu jumladan:					
yuridik shaxslar	1 240,8	1 576,1	3 040,5	3 609,3	4 754
jismoniy shaxslar	733,4	881,2	974,9	1 488,4	1 961
Yer solig'i jami	2 386,7	4 082,8	5 305,9	6 890,1	7 171
shu jumladan:					
yuridik shaxslar	1 306,8	2 662,5	3 422,0	4 018,1	4 182
jismoniy shaxslar	1 079,9	1 420,3	1 883,9	2 872,0	2 989

So'nggi yillarda mulkiy soliqlardan O'zbekiston iqtisodiyotiga tushadigan soliq yuki yalpi ichki mahsulotning taxminan 1 foizi darajasida deyarli o'zgarmasdan saqlanib qolmoqda. Ushbu holat mulkiy soliqlarning soliq to'lovchilar uchun nisbatan mo'tadil soliq yukini shakllantirayotganligini ko'rsatadi.

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, mulkiy soliqlarning O'zbekiston davlat budjeti daromadlaridagi fiskal roli nisbatan barqaror bo'lib qolmoqda. Xususan, 2020-2024-yillar davomida mulkiy soliqlar ulushiga O'zbekiston konsolidatsiyalashgan budjeti jami soliq daromadlarining eng ko'pi bilan 4 foizi, davlat budjeti daromadlarining esa 5 foizigacha bo'lgan qismi to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, mazkur daromad manbaining budjetdagi ulushi bo'yicha ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, mulkiy soliqlarning budjet daromadlaridagi ulushi tahlil qilinayotgan davr mobaynida mutanosib ravishda 3 foizdan 5 foizgacha oshib borgan bo'lib, bu ularning fiskal ahamiyati bosqichma-bosqich ortib borayotganidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. 2020-2024-yillarda O'zbekistonda mulkiy soliqlarning YaIM va jami soliq tushumlaridagi ulushi⁸, %

⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.


⁸ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Mulkiy soliqlarning O'zbekiston konsolidatsiyalashgan budjeti daromadlaridagi ulushi nisbatan kam bo'lishiga qaramay, ushbu soliqlar mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda muhim fiskal ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlari tarkibida mulkiy soliqlar so'nggi yillarda jami soliq daromadlarining 24 foizigacha bo'lgan ulushni tashkil etib, 2020-yildagi 16 foizdan 2024-yilda 24 foizgacha oshgan (2-jadval va 1-rasm).

Mulkiy soliqlar tarkibida O'zbekiston davlat budjetiga eng katta tushum yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu soliq turi mulkiy soliqlar bo'yicha jami barqaror tushumlarning 30 foizidan ortig'ini tashkil etmoqda. Fiskal ahamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq turadi bo'lib, so'nggi yillarda uning ulushi mulkiy soliq tushumlarining 30 foizigacha bo'lgan qismini egallagan.

So'nggi yillarda, xususan 2020-2024-yillarda davomida, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i tushumlarining bosqichma-bosqich kamayishi va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq tushumlarining izchil ortib borishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2024-yilda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha to'lovlar 2021-yilga nisbatan 26 foizga kamaygan bo'lsa, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha to'lovlar 2024-yilda 2021-yilga nisbatan 42 foizga oshgan (2-rasm).



2-rasm. 2020-2024-yillarda O'zbekistonda mulkiy soliq tushumlari⁹, mlrd so'm

Mulkiy soliqlar davlat budjetini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynamagan bo'lsa-da, mahalliy budjetlar uchun soliq tushumlarining barqaror manbai hisoblanadi. Mazkur holatda mulkiy soliqlarning fiskal funksiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu xususiyatlar, asosan, quyidagi ikki omil bilan izohlanadi:

1. Harakatchan emasligi — mol-mulk soliqlarining soliq bazasi ko'chmas mulk va yer uchastkalariga bog'langan bo'lib, ular hududdan hududga ko'chmaydi va mahalliy iqtisodiyot bilan bevosita uzviy bog'liqdir.

2. Barqarorligi — soliq bazasining nisbatan o'zgarmasligi ushbu soliq tushumlarining daromad soliqlariga nisbatan barqarorroq bo'lishini ta'minlaydi hamda ularning dinamikasini oldindan aniqroq prognoz qilish imkonini beradi.

Mulkiy soliqlar asosiy soliqlar qatorida ustuvor o'rin egallamagan bo'lsa-da, mahalliy budjetlarning soliq daromadlarini shakllantirishda barqaror manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi va shu orqali o'zining fiskal funksiyasini samarali amalga oshiradi. Ushbu soliqlar bo'yicha soliq bazasi nisbatan barqaror bo'lib, ular iqtisodiy kon'yunktura o'zgarishlariga kamroq ta'sirchan hisoblanadi hamda hududlar uchun ishonchli daromad manbaini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetida mulkiy soliqlarning ulushi qariyb 5 foizni, yalpi ichki mahsulot tarkibida esa taxminan 1 foizni tashkil etmoqda.

Resurs soliqlari tarkibida mulkiy soliqlar tushumlarining barqarorligini baholash maqsadida guruhdagi boshqa resurs soliqlari (tahlil uchun yer qo'riqidan foydalanganlik uchun soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tanlandi) bilan qiyosiy tahlil o'tkazildi. Ushbu tahlil 3-jadval ma'lumotlariga asoslanib amalga oshirildi.

Tahlil doirasida 2020-2024-yillar davomida mazkur soliqlar bo'yicha real o'sish sur'atlari hisoblab chiqildi hamda ularning dinamik ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan taqqoslandi (3-jadval).

9 O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



3-jadval. 2020-2024-yillarda davlat budjetida resurs va mulkiy soliqlarning real o'sish sur'atlarini tabaqalashtirish ko'rsatkichlari¹⁰, %

Real o'sish sur'atlari	O'rta arifmetik (oddiy)	Mediana	Variatsiya kengligi	Standart og'ish	Variatsiya koeffitsiyenti
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	0,84	2,68	22,34	10,70	1 275
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	29,40	27,68	56,46	26,30	89
Mulkiy soliqlar	34,24	35,57	34,15	15,10	44

Aniqlanishicha, mulkiy soliqlar 2020-2024-yillar davomida asosiy budjetni shakllantiruvchi soliqlarga nisbatan eng barqaror soliq turi hisoblanadi. Variatsiya kengligi, standart og'ish hamda variatsiya koeffitsiyenti ko'rsatkichlari tahlil qilinayotgan guruhda eng past darajada shakllangan. Xususan, variatsiya kengligi 34 foizni, standart og'ish 15 foizni, variatsiya koeffitsiyenti esa 44 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, mulkiy soliqlar bo'yicha o'rtacha yillik real o'sish sur'ati 34-35 foiz atrofida bo'lib, mediananing 36 foiz darajasida shakllanishi budjetga tushumlarning nisbatan barqaror o'sib borayotganidan dalolat beradi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha ayrim yillarda o'sish sur'atlarining manfiy bo'lishi natijasida o'rtacha arifmetik ko'rsatkich atigi 0,84 foizni tashkil etdi. Biroq ushbu soliq turi bo'yicha yillar kesimida tebranishlar yuqori bo'lib, variatsiya koeffitsiyenti 1 275 foizga yetdi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushumlar o'rtacha 29-30 foiz atrofida o'sgan bo'lsa-da, yillar kesimida o'sish sur'atlarining 2,88 foizdan 59,34 foizgacha keskin farqlanishi variatsiya koeffitsiyentining 89 foiz darajasida shakllanishiga olib keldi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat budjeti uchun barqaror daromad manbalarini shakllantirish va kelgusi davrlarda samarali rejalashtirishni ta'minlashda mulkiy soliqlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, soliq siyosatini ishlab chiqishda mulkiy soliqlarga ustuvor e'tibor qaratish, shuningdek boshqa soliq turlari bo'yicha tushumlarning barqarorligini oshirishga qaratilgan choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mahalliy hokimiyat organlari hududiy iqtisodiy faoliyatning istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirish uchun zarur moliyaviy resurslarga ega. Mahalliy budjetlarga soliq tushumlarining barqaror o'sib borishi sharoitida O'zbekiston Respublikasi hududlarida iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning samarali mexanizmlarini izlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Hozirgi sharoitda mahalliy iqtisodiyotning eng ustuvor vazifasi soliq tushumlarining uzluksiz barqarorligini ta'minlash, ushbu barqarorlikni soliq to'lovchilar uchun ishonch omiliga aylantirish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini samarali joriy etishdan iboratdir.

Mazkur holat mahalliy hokimiyat organlaridan yuridik shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortish tizimini isloh qilish jarayonlariga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Xususan, mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati asosida soliqqa tortishdan kadastr baholash usuliga bosqichma-bosqich va izchil o'tishni ta'minlash hududlarda budjet tushumlarining barqarorligini saqlab qolish bilan bir qatorda, o'rta va uzoq muddatli strategik moliyaviy rejalashtirish uchun mustahkam asos yaratadi.

4-jadvalda 2020-2023-yillarda jami soliq daromadlarida mulkiy soliqlarning eng yuqori va eng past ulushiga ega bo'lgan hududlar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjeti soliq daromadlarida mulkiy soliqlarning fiskal roli hududlar kesimida sezilarli darajada farqlanadi. Ayrim hududlarda mulkiy soliqlar jami soliq daromadlarining qariyb 10 foizini tashkil etgan bo'lsa, boshqa hududlarda ushbu ko'rsatkich 25 foizgacha yetib, mulkiy soliqlar mahalliy budjetlarning asosiy daromad manbalaridan biri sifatida shakllangan (4-jadval).

4-jadval. 2020-2023-yillarda mulkiy soliqlardan tushadigan daromadlarning mahalliy budjetlardagi ulushi¹¹, %

№	Hududlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	19	19	21	22
2	Andijon viloyati	12	12	10	14
3	Buxoro viloyati	14	18	20	24
4	Jizzax viloyati	13	14	15	18
5	Qashqadaryo viloyati	21	18	21	22

10 O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

11 O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari hamda "Fuqarolar uchun budjet" qo'llanmalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



№	Hududlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
6	Navoiy viloyati	16	24	24	25
7	Namangan viloyati	13	14	13	16
8	Samarqand viloyati	15	17	17	20
9	Surxondaryo viloyati	16	17	16	19
10	Sirdaryo viloyati	15	15	14	16
11	Toshkent viloyati	22	23	26	24
12	Farg'ona viloyati	12	13	16	17
13	Xorazm viloyati	15	16	15	18
14	Toshkent shahri	23	28	30	31
—	Jami	16	18	19	22

Mulkiy soliqlarning fiskal ahamiyati bo'yicha sanoatlashgan hududlar hisoblangan Toshkent shahri, Navoiy viloyati hamda Toshkent viloyati yetakchi o'rinlarni egallaydi. Mazkur hududlarda yirik kompaniyalar faoliyat yuritib, ular yuqori qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish asbob-uskunolari, bino-inshootlar va yer uchastkalariga egalik qiladi. Ushbu aktivlarning qiymati mulkiy soliqlarni hisoblashda asosiy soliq bazasini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu nuqtai nazardan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlari hamda subsidiyalarni joriy etish mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etadi va davlat siyosatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu imtiyozlar energiya va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, atrof-muhit sifatini yaxshilash, investitsiyalarni jalb etish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish kabi muhim strategik maqsadlarga yo'naltirilgan.

Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish uchun ularni joriy etishda qat'iy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, imtiyozlarni maqsadli va differensial tarzda qo'llash, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish hamda xalqaro tajribaga mos ilmiy asoslangan yondashuvlarni tatbiq etish zarur. Faqat ushbu shartlar bajarilgandagina mazkur choralar davlat manfaatlariga to'liq mos kelib, iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikka sezilarli hissa qo'sha oladi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda joriy etilayotgan tizimdagi o'zgarishlar kutilgan natijalarga to'liq erishmasligi ehtimoli mavjud. Bunga, asosan, hududiy boshqaruv organlarining joriy etilayotgan yangiliklarning maqsadga muvofiqligiga ehtiyotkorona yondashuvi yoki hududiy infratuzilmaning yangi tizimlarni to'liq qabul qilishga yetarli darajada tayyor emasligi sabab bo'lishi mumkin. Islohotlarni amalga oshirish jarayonidagi kechikishlar O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanish sur'atlariga ta'sir ko'rsatib, budjetlarga soliq daromadlarining to'liq tushish jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

Amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida 2030-yilgacha soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish, samarasiz soliq imtiyozlaridan bosqichma-bosqich voz kechish hamda ushbu choralar orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish vazifalari belgilangan.

Davlat budjeti daromadlarini oshirish maqsadida o'rta muddatli istiqbolda soliq siyosatini izchil isloh qilish, jumladan yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish hisobiga soliq to'lovchilar qamrovini kengaytirish, qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish, shuningdek soliq va bojxona imtiyozlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish hamda ijtimoiy-iqtisodiy samara bermayotgan imtiyozlarni bekor qilish bo'yicha ishlarni davom ettirish nazarda tutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/docs/-4674011>
3. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/docs/-2302187>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 13-avgustda 666-sonli "Ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3866498>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2020-yildagi ijrosi to'g'risida"gi hisobot bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi.



II. Monografiyalar, darsliklar va ilmiy tadqiqotlar

6. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish: darslik. - Toshkent: Sharq, 2009. - 285 b.
7. To'ychiyev N.J., Mirkhoshimov A.M., Plakhtiy K.A. Ko'chmas mulkni baholash asoslari: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Adolat, 2000. - 280 b.
8. Schumpeter J. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. Kapitalizm, sotsializm i demokratiya. - Moskva: Eksmo, 2007. - 864 s.
9. Alfirman L. Estimating Stochastic Frontier Tax Potential: Can Indonesian Local Governments Increase Tax Revenues under Decentralization? - Boulder: University of Colorado at Boulder, Working Paper 03-19, 2003. - 35 p.
10. Aliev B.Kh., Musaeva Kh.M. Development of tax federalism in the context of Russian reforms // Taxes and Financial Law. - 2012. - № 3.
11. Bingyang Lü. Why China's Tax Revenue Is Likely to Maintain Its Rapid Growth: An Explanation within the Framework of Tax Capacity and Tax Effort // Social Sciences in China. - 2012. - Vol. XXXIII, No. 1. - P. 108-126.
12. Brehm S. Fiscal Incentives, Public Spending, and Productivity: County-Level Evidence from a Chinese Province // World Development. - 2013. - Vol. 46. - P. 92-103.
13. Pardayev U. Davlat budjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2018. - 25-26 b.
14. Musalimov Sh. Mol-mulk solig'ini hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent, 2020. - 32-35 b.
15. To'lakov U. Ko'chmas mulkni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2022. - 20-27 b.
- III. Elektron manbalar
16. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi rasmiy sayti. - <https://soliq.uz>
17. Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reyestri. - <https://davreyestr.uz>
18. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi rasmiy sayti. - <https://kadastr.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>